


Sirdaryo viloyatida umumiy o'рта ta'lim tizimi (2019-2020 o'quv yili boshiga)

Umumiy o'рта ta'lim tizimi, boshlang'ich (I - IV sinflar), tayanch o'рта (V-IX sinflar) hamda umumiy o'рта ta'lim (X-XI sinflar) bosqichlaridan iborat bo'lib, kunduzgi ta'lim shaklida faoliyat yuritadi.

Prezidentimizning tashabbuslari bilan ko'plab ota-onalar, pedagoglar, yoshlar hamda keng jamoatchilik takliflarini o'rgangan holda, yurtimizda 11 yillik o'рта ta'lim tizimi qayta tiklandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 25- yanvardagi "Umumiy o'рта, o'рта maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq 2018-2019 o'quv yilidan boshlab majburiy umumiy o'рта ta'lim tizimi, uzluksiz ravishda 11 yillik ta'lim negizida amalga oshirilmoqda. Sirdaryo viloyatida 2019-2020 o'quv yili boshiga jami umumta'lim muassasalari soni 312 tani tashkil etdi va ulardan 222 tasi (71%) qishloq joylarda, 90 tasi (29%) shahar joylarda umumta'lim muassasalari joylashgan.

Umumiy o'рта ta'lim muassasalarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda



Umumta'lim muassasalari soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12 taga ko'paydi.

Umumta'lim muassasalarida sinflar bo'yicha o'quvchilar soni, kishi
(2019-2020 o'quv yili boshiga)


	shundan:				Boshqa maktablar o'quvchilari
	O'quvchilar soni jami	1-4 sinflar	5-9 sinflar	10-11 sinflar	
Sirdaryo viloyati	156863	63460	69855	23199	349
Guliston.sh	22287	8917	10130	3240	-
Shirin.sh	3786	1695	1652	439	-
Yangiyer.sh	8748	3379	4129	1240	-
Oqoltin	9222	3809	4157	1256	-
Boyovut	21703	8568	9602	3533	-
Guliston	13085	5426	5813	1846	-
Mirzaobod	13952	5704	6297	1951	-
Sayhunobod	14001	5548	6212	2241	-
Sardoba	10671	4443	4583	1645	-
Sirdaryo	22825	9219	9956	3301	349
Xovos	16583	6752	7324	2507	-



2019-2020 o'quv yili boshiga, umumta'lim muassasalarining birinchi sinfiga qabul qilingan o'quvchilar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega hudud Sirdaryo, Boyovut tumanlarida va Guliston shaharida qayd etilgan bo'lsa, eng kam ko'rsatkich Yangiyer va Shirin shaharlarida kuzatilgan.

Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi

Smenalar bo'yicha mashg'ulot olib boradigan muassasalar ulushi, % da



2019-2020 o'quv yili boshiga, barcha ta'lim muassasalaridan birinchi smenada ta'lim yuritiladiganlari 94 ta (30,3 %), ikkinchi smenada 216 ta (69,7 %) ni tashkil etadi. Ta'kidlanganidek, birinchi smenada 106,6 ming kishi, ikkinchi smenada 50,0 ming kishi tahsil olmoqda.

Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi hududlar kesimida, birlikda

(jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktablarisiz)

	Sirdaryo viloyati	Guliston.sh	Shirin.sh	Yangiyer.sh	Oqoltin	Boyovut	Guliston	Mirzaobod	Sayhunobod	Sardoba	Sirdaryo	Xovos
Jami muassasalar, birlik	310	21	4	11	18	56	31	35	41	21	43	29
<i>ulardan mashg'ulot olib boradigan:</i>												
Birinchi smenada	94	6	1	1	4	22	9	10	12	5	17	7
ikkinchi smenada	216	15	3	10	14	34	22	25	29	16	26	22


Umumta'lim muassasalarida o'qituvchilarning ma'lumoti bo'yicha taqsimlanishi



	Sirdaryo viloyati	Guliston.sh	Shirin.sh	Yangiyer.sh	Oqoltin	Boyovut	Guliston	Mirzaobod	Sayhunobod	Sardoba	Sirdaryo	Xovos
Jami o'qituvchilar soni (o'rindoshlarsiz), kishi	12334	1530	252	554	680	1969	1131	1206	1375	816	1702	1119
<i>ulardan ma'lumotga ega bo'lganlar:</i>												
Oliy ma'lumotli	11101	1506	232	536	570	1831	1075	1099	1104	720	1426	1002
O'rta maxsus ma'lumotli	1233	24	20	18	110	138	56	107	271	96	276	117


Umumta'lim muassasalarida 11- sinfni bitirgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi

(2019-2020 o'quv yili boshiga)



2019-2020 o'quv yili boshiga Sirdaryo viloyatida umumta'lim muassasalarining 11-sinfini tamomlaganlar soni 6094 nafarni tashkil etgan. Viloyatimiz bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Boyovut tumanida (1021 nafar) va Guliston shaharida (748 nafar), tuman-shaharlariga to'g'ri keladi, Shirin (91 nafar) va Yangiyer (143 nafar) shaharlarida eng kam ko'rsatkich qayd etilgan.

Umumta'lim muassasalari o'quvchilarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi,
%da
(2019/2020 o'quv yili boshiga)



2019-2020 o'quv yili boshiga, Sirdaryo viloyati bo'yicha jami umumta'lim muassasalarida 156863 nafar o'quvchilar ta'lim olayotgan bo'lib, ulardan 81153 nafari (51,7%) o'g'il bolalar, 75710 nafari (48,3%) qiz bolalarni tashkil etadi.

Umumta'lim muassasalarida bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, birlikda



2019-2020 o'quv yili boshida umumta'lim muassasalarida jami o'qituvchilar soni 12334 nafarni (o'rindoshlarsiz) tashkil etdi, Sirdaryo viloyatida bitta o'qituvchiga (o'rindoshlarsiz) o'rtacha 13 nafar o'quvchi to'g'ri keladi. Shulardan hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Yangiyer shahrida qayd etilib, unda bitta o'qituvchiga o'rtacha 16 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan bo'lsa, Boyovut tumanida esa eng past ko'rsatkich ya'ni bitta o'qituvchiga o'rtacha 11 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan.

